

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI STRATEGIK TAHLIL VA ISTIQBOLNI  
BELGILASH OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.30.11.2021. Ss/I.89.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**TO‘RAYEV ODILJON BEKTEMIR O‘G‘LI**

**JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA IJTIMOY  
XAVFSIZLIKKA TA‘SIR QILUVCHI SOTSIAL OMILLAR**

**22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi**

**23.00.05 – “Milliy xavfsizlikning tizimli tahlili va istiqbolni belgilash  
muammolari” (sotsiologiya fanlari)**

**Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора по социологическим наукам (DSc)**

**Content of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on sociological sciences**

<b>To‘rayev Odiljon Bektemir o‘g‘li</b> Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillar.....	3
<b>Тураев Одилжон Бектемир угли</b> Социальные факторы, влияющие на социальную безопасность в условиях трансформации общества.....	34
<b>Turayev Odiljon Bektemir ugli</b> Social factors affecting social security in the context of societal transformation .....	68
<b>E’lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	73

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI STRATEGIK TAHLIL VA ISTIQBOLNI  
BELGILASH OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.30.11.2021. Ss/I.89.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**TO‘RAYEV ODILJON BEKTEMIR O‘G‘LI**

**JAMIYAT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA IJTIMOIIY  
XAVFSIZLIKKA TA‘SIR QILUVCHI SOTSIAL OMILLAR**

**22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi**

**23.00.05 – “Milliy xavfsizlikning tizimli tahlili va istiqbolni belgilash  
muammolari” (sotsiologiya fanlari)**

**Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

**Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4. DSc /S47 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.moiti.uz](http://www.moiti.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Matibayev Taspulat Boltabayevich**  
sotsiologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Abduramanov Xamid Xudayberganovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimov Bobir Sharopovich**  
sotsiologiya fanlari doktori, professor

**Abduraxmonova Manzura Manofovna**  
sotsiologiya fanlari doktori, professor


**Etakchi tashkilot:**

**“Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.11.2021. Ss/1.89.02 raqamli Ilmiy kengash huzuridagi Bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil 27.06 kuni soat 15:00 da majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sharafobod ko'chasi, 20 uy. Tel.: (+998)71-252-91-36).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (manzil: 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sharafobod ko'chasi, 20 uy. Tel.: (+998)71-252-91-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «13» iyun kuni tarqatildi.  
(2025 yil «13» iyundagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**A.A. Zohidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sh.A. Muqimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Sh.M. Sodiqova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda transformatsionlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda dunyo hamjamiyati oldida ijtimoiy xavfsizlikka tahdid soluvchi turli omillarni o'z vaqtida aniqlash va ularning salbiy ta'sirini bartaraf etishdek dolzarb vazifa turibdi. Shu sababli, yetakchi xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda "Aql markazlari" tomonidan davlatlarning ijtimoiy xavfsizlik holati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar doimiy ravishda monitoring qilib borilmoqda. Ularning tadqiqotlari natijasida ijtimoiy sohalaridagi xavfsizlik indekslari va davlatlarning reytinglari shakllantirilmoqda. Bu, o'z navbatida, davlatlarning xalqaro imijiga bevosita ta'sir etib, siyosiy, savdo-iqtisodiy, texnologik, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishda asosiy mezonlardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillarni baholash mexanizmi doimiy ravishda takomillashtirilib, yangi va zamonaviy ilmiy-texnologik metodlarni faol qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, BMT Ijtimoiy rivojlanish bo'yicha tadqiqot instituti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Yevropa ijtimoiy farovonlik siyosati va tadqiqot markazi tomonidan ijtimoiy xavfsizlik holatini monitoring qilish bo'yicha innovatsion yechimlar taklif qilinmoqda<sup>1</sup>. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillarni baholash jarayonini soddalashtirish, baholash ko'lamini yanada oshirish hamda ishonchli prognozlar ishlab chiqish imkoniyatini oshiradi.

Mana shunday sharoitda O'zbekiston ijtimoiy davlatga transformatsiya bo'lar ekan, ijtimoiy xavfsizlik holatini doimiy monitoring qilish va baholab borish, shu orqali davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi – bizning bosh maqsadimizdir. Bu yo'nalishda oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq<sup>2</sup>". Shu sababli, davlatning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillarni baholash jarayonini takomillashtirish hamda zamon talablari darajasiga yetkazishga obyektiv ehtiyoj mavjud. Ijtimoiy xavfsizlik holatini sifatli baholash orqali jamiyatda mavjud tahdid va imkoniyatlar bilan bir qatorda, davlatning ijtimoiy siyosati samaradorligini aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Baholash natijalari asosida muammoli sohani rivojlantirish bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari ishlab chiqiladi hamda ularning ijrosi monitoring qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni, 2020-yil 16-martdagi O'RQ-611-son "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi O'RQ-641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi O'RQ-642-son "Aholi bandligi to'g'risida"gi,

<sup>1</sup> European Center for Social Welfare Policy and Research Assessing the motivation, expectations and preferences of medical residents // <https://www.euro.centre.org/projects/detail/3061>, 14.10.2023.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. // "Xalq so'zi", 2018 yil 29 dekabr.

2014 yil 25 sentyabrdagi “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, 2016-yil 26-dekabrda “Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-sonli ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 25-iyuldagi PF-175-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2024-yil 23-sentyabrdagi PF-143-sonli “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-sonli ““Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori doirasida amalga oshirilgan ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada mazkur mavzuga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Davlatning ijtimoiy xavfsizligini ta‘minlash, uning kesimida ijtimoiy risklarni bartaraf qilish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, BMT Xalqaro mehnat tashkiloti (UN International Labour Organization, UNILO), BMT Rivojlantirish dasturi (UN Development Programme, UNDP), BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (United Nations Economic Commission for Europe, UN ECE), BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (United Nations Population Fund, UNFPA), Jahon banki guruhi (The World Bank group), Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD), Xitoy kambag‘allikni qisqartirish xalqaro Markazi (International Poverty Reduction Center in China, IPRCC), Abdul Latif Jameel nomidagi Kambag‘allik bilan kurashish laboratoriyasi (Abdul Latif Jameel Poverty Action Lab, J-PAL) ijtimoiy risklarni bartaraf qilish yo‘nalishida tadqiqot ishlarini olib boradi, Kambag‘allik bilan kurashish bo‘yicha Yevropa tarmog‘i (European Anti Poverty Network, EAPN), Oksford universiteti kambag‘allik va inson rivojlanishi bo‘yicha oksford tashabbuslari (Oxford Poverty and Human Development Initiative (OPHI) at the

---

3 <https://www.ilo.org/global/lang-en/index.htm>, <https://www.undp.org>, <https://unece.org>, <https://www.unfpa.org>,  
<https://www.worldbank.org>, <https://www.who.int>, <https://www.oecd.org>, <https://www.iprcc.org>,  
<https://www.povertyactionlab.org>, <https://www.eapn.eu>, <https://ophi.org.uk>,  
<https://www.povertycenter.columbia.edu>, <https://www.parisschoolofeconomics.eu/en>, <https://www.cer.uz>,  
<https://imrs.uz>, <https://strategy.uz>, <https://cedr.uz>.

University of Oxford), Kolumbiya universiteti kambag'allik va ijtimoiy siyosat markazi (Center on poverty and social policy at Columbia University), Parij iqtisodiyot maktabi (Paris School of Economics, PSE), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiyot va hududiy tadqiqotlar instituti, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi, O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi tomonidan olib borilmoqda.

Jahon miqyosida ijtimoiy risklarni bartaraf qilish va aholi turmush farovonligini oshirishga oid tadqiqotlar doirasida bir qator ilmiy natijalar olingan: inson kapitaliga qilingan investitsiya ma'lum davrdan so'ng barqaror qaytim berishini ta'kidlanadi. Sog'liqni saqlash, ta'lim va malaka oshirish kabilarga investitsiya qilinishga alohida e'tibor qaratiladi (T. Shuls, 1979 y.); ta'lim olish va malaka oshirish aholi turmush farovonligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi muhim omil ekanligini qayd etiladi (G. Bekker, 1992 y.); ijtimoiy muammolardan chiqishda shaxsning imkoniyatlari hamda ulardan foydalanish darajasi hal qiluvchi rol o'ynaydi (A. Sen, 1998 y.); inson kapitali va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik asnosida bolalikdagi ta'limga qilingan investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash va daromadlar nobarqarorligini kamaytirishdagi muqarrar rolini isbotlanadi. Yoshlikdagi ta'limga yo'naltirilgan bir birlik investitsiyaning qaytimi jamiyatga yetti birlik barobarga qadar teng bo'lishini asoslab beradi (J. Xekman, 2000 y.); aholi turmush farovonligini oshirish hamda o'z ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini yo'lga qo'yish uchun mikromoliyalash birlamchi daromad olish imkonini beradi (M. Yunus, 2006 y.); kambag'al oilalar farzandlarining sifatli boshlang'ich va o'rta ma'lumot olishlari, turli xil kasalliklarga qarshi emlash hamda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish orqali ijtimoiy risklarni bartaraf qilish qaratilgan mexanizmlardan foydalanish samarali hisoblanadi (J-PAL, A. Banerji, E. Dyuflo va M. Kremer, 2019 y.).

Bugungi kunda kambag'allikni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida jahon miqyosida tan olingan kambag'allik darajasini o'lchash metodlariga binoan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda monetar-nomonetar (ko'p o'lchovli milliy ko'rsatkich) omillarni hisobga olib, kambag'al shaxslarni aniqlash, monitoring qilish va kambag'allikni qisqartirish milliy metodologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi:** O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning "O'zbek modeli"ni hayotga joriy qilish yo'lida ijtimoiy barqarorlikka to'sqinlik qiluvchi tahdidlarga qarsh kurash yo'nalishlari keltirilgan bo'lsa<sup>4</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan so'nggi strategiyalarda liberallashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali sotsial omillarning ijobiy ta'sirini oshirishga urg'u berilgan<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-24 жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996-2014 йиллар.

<sup>5</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016; Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017; Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий

Ijtimoiy xavfsizlik holatini baholash jarayonini tadqiq etish ko'p vaqt talab etadigan ilmiy izlanishlardan biri hisoblanadi. Shu kunga qadar ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlarni MDH hamda G'arb davlatlari olimlari ilmiy tadqiqotlariga ajratib o'rganish mumkin.

G'arb davlatlari olimlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlar ham o'z navbatida klassik hamda zamonaviy tadqiqotlarga tasniflanadi. Klassik tadqiqotlarga O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym<sup>6</sup> kabi sotsiolog olimlarning izlanishlari kiradi. Ular tomonidan ijtimoiy xavfsizlik holatiga ta'sir etuvchi omillar xususida fundamental ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur olimlar o'z tadqiqotlaripda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda aholining iqtisodiy holati bilan bir qatorda ijtimoiy kayfiyat, motiv va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi g'oyaviy-mafkuraviy masalalarni ochib berishgan.

C.Meines, L.Bus, V.Renaud kabi Yevropa olimlari zamonaviy tadqiqotlar o'tkazib, o'z ilmiy ishlarida demografik omilga ustuvorlik bergan<sup>7</sup>. M.Samson, S.Katvik, M.Froling, R.Endoro kabi BMT ijtimoiy rivojlanish bo'yicha tadqiqot instituti mutaxassislarining ilmiy ishlarida ijtimoiy xavfsizlikka jahon miqyosida yondashilgan<sup>8</sup>. Shu sababli, inson yashashi uchun zarur hayotiy muhim vositalar(ichimlik suvi, to'yib ovqatlanish kabilar)ga ijtimoiy xavfsizlik holatini baholashning asosiy mezoni sifatida qaralgan.

Mavzu doirasida MDH davlatlari olimlarining ilmiy faoliyatini milliy izlanishlar hamda MDH makonidagi boshqa olimlarining ilmiy faoliyatiga ajratish mumkin. Hozirgi kunga kelib, o'zbekistonlik olimlar M.Bekmurodov, M.Ganieva, A.Xolbekov, T.Matibaev, A.Umarov, Sh.Sodiqova, N.Latipova, B.Farfiyev, B.Karimov hamda H.Xusanovalar o'z tadqiqotlarida global transformatsiya va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy sohalarni rivojlantirish orqali jamiyat barqarorligini ta'minlashni sotsiologik nuqtai nazardan o'rgangan bo'lsa<sup>9</sup> Sh.Paxruddinov, X.Abulqosimov, M.Abulqosimov, R.Jumanova, S.Abdulxalilova, B.Baxtiyrov, G.Kasimova, B.Ruxitdinov, Sh.Sa'dullaeva, M.Mirzakarimova, Sh.Olimjonova, M.Umurzakovalar<sup>10</sup> ijtimoiy sohaning alohida yo'nalishlaridagi muammolarni tadqiq etgan. Xususan, Sh. Paxruddinov

---

тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017; Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

<sup>6</sup> Конт О. Система позитивной политики // <https://be5.biz/pravo/i020/27>, 12.10.2023.; Спенсер Г. Основания социологии // <https://knigogid.ru/books/725702-osnovaniya-sociologii>, 11.10.2023. Malik X. Emile Durkheim Contributions to Sociology // <https://www.researchgate.net/publication/35892>

<sup>7</sup> Meines S. Bus L. Renaud V. Spatial analysis of social facts // [https://www.researchgate.net/publication/280847289\\_Spatial\\_analysis\\_of\\_social\\_facts](https://www.researchgate.net/publication/280847289_Spatial_analysis_of_social_facts), 10.10.2023.

<sup>8</sup> Froling M. Endoro I. Social welfare // <https://www.un.org/esa/subindex/gl20.htm>, 10.10.2023.

<sup>9</sup> Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Дарслик. – Тошкент: Академия, 2020. – 320 б.; Ганиева М. Социальная активность современной узбекистанской молодежи / East European Scientific Journal. 6(№31), -P. 40-44. Холбеков А. Социология молодежи. Учебное пособие. – Тошкент: Университет, 2020. – 144 с.; Матибаев Т. Ижтимоий ҳамкорлик – миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенгликни таъминлаш воситаси. – Тошкент: “Yangi kitob”, 2016, – 184 б.; Умаров А. Глобаллашув ва ахборот-кутубхона жараёнлари / Kutubxona.uz. илмий-услубий журнал №2 (46) 2020. – Б. 9.; Содикова Ш. Ўзгаришлар социологияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Академия, 2020. – 160 б.; Latipova N. O'zbekistonda onlar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish. sos. f.d. diss..avtoref. -Toshkent: 2018. – B. 63.; O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi: konseptual asoslar va innovatsion tendensiyalar. Monografiya. – Toshkent: “KALEON PRESS” 2021. – 168 b

<sup>10</sup> Abulqosimov M. Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari; Kasimova G. Pensiya ta'minoti xavfsizligi va ijtimoiy risklar // <https://cyberleninka.ru/article/n/pensiya-taminoti-havfsizligi-va-izhtimoiy-risklar>, 28.10.2023.; Mirzakarimova M. Olimjonova Sh. Norasmiy bandlik va uni legallashtirish masalalari // <https://cyberleninka.ru/article/n/norasmiy-bandlik-va-uni-legallashtirish-masalalari>, 01.11.2023.; Umurzaqova M. O'zbekistonda majburiy sug'urta tizimini amalga oshirish imkoniyatlari // <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-istonda-mazhburiy-tibbiya-tizimini-amalga-oshirish-imkoniyatlari>,

tahdidbardosh jamiyatni rijovlantirishga e'tibor qaratgan bo'lsa, X.Abulqosimov o'z ilmiy-tadqiqot ishida ijtimoiy xavfsizlik sohasidagi fundamental tushunchalarga to'xtalib, an'anaviy hamda mualliflik ta'riflarini berib o'tgan<sup>11</sup>. R.Jumanova S.Abdulxalilov, B.Baxtiyorov<sup>12</sup>, kabi olimlar ijtimoiy xavfsizlikka bevosita ta'sir etuvchi dolzarb masalalar – ijtimoiy tabaqalashuv, noan'anaviy tahdidlar va ularning oqibatlarini haqida izlanishlar olib borgan. Bevosita tadqiqot predmeti ijtimoiy xavfsizlik holatini kompleks baholash mexanizmi bo'lgan milliy ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud emas.

Bu borada rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Ye.V.Popov, K.A.Semyachkov, M.Liga<sup>13</sup>, I.Shetkina, Ye.Zaxarov<sup>14</sup> tomonidan ijtimoiy rivojlanish indeksini baholash metodologiyasi o'rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida indikativ, omilli tahlil hamda subyektiv (ijtimoiy so'rovnoma) metodlarining afzalliklari ochib berilgan.

Keltirilgan milliy tadqiqotlarda ijtimoiy sohaning ma'lum qismini baholash bilan cheklanilgan bo'lsa, xorijiy metodikalar, asosan, Yevropa xalqlarining ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq. Shu sababli, ijtimoiy xavfsizlik holatini baholashning zamonaviy ilmiy-texnologik metodikalarini o'rganish, o'zbek jamiyatining o'ziga xos jihatlari va zamonaviy tahdidlarni inobatga olgan holda ijtimoiy xavfsizlik holatini baholash jarayonini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurtining ilmiy tadqiqot rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining "O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy siyosatni rivojlantirish va takomillashtirish" (2022-2026, 1-I-1-1504-son) ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalari rejasi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqot ishining maqsadi** O'zbekistonda jamiyat transformatsiyasi sharoitida sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlik holatiga ijobiy ta'sirini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy asoslantirishdan iborat.

#### **Tadqiqot ishining vazifalari:**

- ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyatini ochib berishga hamda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga oid yondashuvlarni sotsiologik tahlil qilish;

- ijtimoiy xavfsizlikning milliy xavfsizlik tizimida tutgan o'rnini yoritish;

- O'zbekistonning ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini hamda O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillarni sotsiologik baholash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni tahlil

<sup>11</sup> Пахрутдинов, Ш. И. (2016) Угрозоустойчивое общество в качестве фактора развития государства и общества.- Санкт-Петербург, Конфликтология, с. 67;Abulqosimov X. O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning ayrim masalalari // <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-izhtimoiy-havfsizlikni-taminlashning-ayrim-masalalari>, 25.11.2023.

<sup>12</sup> Jumanova R. Davlat tomonidan aholi turmush darajasini tartibga solish yullari // <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-tomonidan-a-oli-turmush-darazhasini-tartibga-solish-yullari>, 12.10.2023.; Abduxalilova S. Mamlakat rivojida aholi bandligi va uni ta'minlashning ustuvor vazifalari // <https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakat-rivozhida-oli-bandligi-va-uni-taminlashning-ustuvor-vazifalari>, 15.10.2023.; Baxtiyorov B. O'zbekistonda aholining ijtimoiy jihatdan tabaqalanish mezonlari va tendentsiyalari // <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-a-olining-izhtimoiy-zhi-atdan-tabaqalanish-mezonlari-va-tendentsiyalari>, 20.10.2023

<sup>13</sup> Попов Е.В., К.А.Семьячков, М.Лига Обеспечение социальной безопасности // <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-sotsialnoy-bezopasnosti>, 15.11.2023.

<sup>14</sup> Щеткина И. Лига Е. Захаров М. Оценка качества жизни населения как условие обеспечения социальной безопасности (по материалам социологического исследования) // <https://zabvektor.com/wp-content/themes/poseidon/files/180518030559-liga,-shhetkina,-zaharova>, 25.11.2023.

qilish;

- O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda birlamchi sotsial omillar – demografik, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya omillarining ta'sirini baholash;

- O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillarni sotsiologik baholash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

- ijtimoiy xavfsizlik darajasini aniqlash, monitoring qilish va prognozlashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish;

- O'zbekistonda sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ijobiy ta'sirini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari ochib berish.

**Tadqiqot ishining obyekti:** O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi sotsial omillar.

**Tadqiqot ishining predmeti:** O'zbekistonda sotsial omillar (demografik, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya) ning ijtimoiy xavfsizlikka ta'siri.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tizimli tahlil, omilli tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil, modellashtirish, indikativ yondashuv, retrospektiv tahlil, terminologik tahlil, intervyu, anketali so'rovnoma, ekspert so'rovi, obyektiv, subyektiv va integral baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

o'rta ta'limda ta'lim sifatini oshirishda YuNESKOning "ta'limning xalqaro standart tasniflagichi ISCED-2011 (International Standard Classification of Education)" dasturidagi inklyuziv to'siqsiz muhit, qobiliyatlarni erta aniqlash, pragmatik o'zini-o'zi rivojlantirish tamoyillarini joriy qilish orqali umumiy o'rta ta'lim sohasidagi ijtimoiy xavflar va tahdidlarni profilaktika qilish imkoniyatlari indikativ yondashuv usuli asosida takomillashtirilgan;

ijtimoiy xavfsizlikka obyektiv va subyektiv ta'sirlar darajasi, tahdid manbalari, intensivligi, ehtimoliy oqibatlarining sotsial konstruksiyaga asoslangan holda tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishga oid dasturlar va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish vakolatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga berish zarurati asoslantirilgan;

ijtimoiy sug'urta tizimini yo'lga qo'yish orqali fuqarolik va sotsial institutlar (oila, mahalla, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash)ni yaxlit mexanizm holatiga keltirish hamda ijtimoiy davlatning asosiy komponentlari sifatida jamiyatni transformatsiyalovchi katalizatorligi isbotlangan;

ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni yil davomida oshirib borishda tovar va xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi darajasining o'sish sur'atlarini inobatga olgan holda indeksatsiya qilish tartibini joriy qilish orqali ijtimoiy himoya bilan bog'liq xavflarni profilaktikasini negativ statik holdan pozitiv dinamik holga o'tkazish mumkinligi dalillangan;

O'zbekistonning ijtimoiy davlatga transformatsiyasi sharoitida sotsial omillar (demografik, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya) ning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini obyektiv va subyektiv hamda integral metodikalar asosida baholash orqali ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlarning 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning tag tizimi sifatida tasniflanib, uning obyektlari, subyektlari, darajalari, sohalari, predmeti, tahdid manbalari, intensivligi, ehtimoliy oqibatlari, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari konseptual modellashtirilgan;

shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi milliy manfaatlari va potensial tahdidlar sotsial omillar (demografik, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya) kesimida xavfsizlik indikatorlari sotsiologik indekslar guruhi kesimida tasniflangan;

O'zbekistondagi ishsizlik va kambag'allik darajalari hududlar kesimida xaritalashtirilgan;

jamiyat transformatsiyasi sharoitida sog'liqni saqlash, bandlik, ta'lim, ijtimoiy himoya va demografik omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimlashtirilib, ular asosida sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta'siri obyektiv, subyektiv va integral baholash metodikalari asosida baholangan hamda istiqboldagi prognoz parametrlari shakllantirilgan;

oila institutining degradatsiyasiga olib keluvchi tahdidlar (erta, majburiy, shar'iy va qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, ajrimlarning o'sib borishi, oilaning mustahkamlik indeksining salbiy tus olishi, erta tug'ruq va b.) ni yuzaga keltiruvchi omillar sotsiologik tahlil qilingan;

ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda sotsial omillarning salbiy ta'sirini minimallashtirish yuzasidan sun'iy intellektni qo'llash, ijtimoiy institutlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** xalqaro va respublika ilmiy-amaliy va ilmiy-uslubiy konferensiya materiallari to'plamlari, ilmiy maqolalar chop etish tavsiya qilingan OAK ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, olib borilgan miqdoriy va sifatiy tadqiqotlar asosidagi xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini tadqiq etish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash tizimini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari yuzasidan bildirilgan ilmiy-nazariy xulosalardan demografik, bandlik, ta'lim, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimlaridagi ijtimoiy risk va tahdidlarning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga ta'sirini baholash va ularni chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarda manba sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishining g'oya va materiallaridan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qo'yilgan maqsadlarga erishishda ilgari surilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda, O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabida magistratura mutaxassisligi kadrlar tayyorlashda, "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda sotsial omillarning ta'sirini tadqiq etishga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlarda, oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'quv-uslubiy ta'minotini mustahkamlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekistonda jamiyat transformatsiyasi sharoitida sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta’sirini tadqiq etish davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘rta ta’limda ta’lim sifatini oshirishda YuNESKOning “ta’limning xalqaro standart tasniflagichi ISCED-2011 (International Standard Classification of Education)” dasturidagi inklyuziv to‘siqsiz muhit, qobiliyatlarni erta aniqlash, pragmatik o‘zini-o‘zi rivojlantirish tamoyillarini joriy qilish orqali umumiy o‘rta ta’lim sohasidagi ijtimoiy xavflar va tahdidlarni profilaktika qilish imkoniyatlari indikativ yondashuv usuli asosida takomillashtirishga takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmonining “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish” yo‘nalishi bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasining 3 bandida belgilangan vazifalarni ishlab chiqishda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 14-fevraldagi 91-sonli “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda ta’lim sifati monitoringini amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2024-yil 27-martdagi 157-sonli “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 1 bandida belgilangan vazifalarni shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 23-maydagi 04-27-1176-sonli ma’lumotnomasi). Bu o‘z navbatida ta’lim infratuzilmasining demografik bosimga bardoshlilik darajasini oshirish, ta’lim standartlarini xalqaro mezonlar asosida shakllantirish imkonini berib, ehtimoliy salbiy oqibatlarni baholash orqali ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta’sirini minimallashtirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy xavfsizlikka obyektiv va subyektiv ta’sirlar darajasi, tahdid manbalari, intensivligi, ehtimoliy oqibatlarining sotsial konstruksiyaga asoslangan holda tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga oid dasturlar va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish vakolatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga berishga oid takliflaridan 2024-yil 18-oktyabrda qabul qilingan “Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-977-son Qonunning 5-moddasi bilan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-sonli Qonuniga yangi kiritilgan 61-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston XDP fraksiyasining 2025-yil 14-martdagi 21/01-04-sonli dalolatnomasi) Bu, o‘z navbatida, manzilli va samarali ijtimoiy himoya qilinishni kuchaytirishga, ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy sug‘urta tizimini yo‘lga qo‘yish orqali fuqarolik va sotsial institutlar (oila, mahalla, bandlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash)ni yaxlit mexanizm holatiga keltirish hamda ijtimoiy davlatning asosiy komponentlari sifatida jamiyatni transformatsiyalovchi katalizatori bo‘lishi mumkinligiga oid ma’lumotlaridan “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi (Sug‘urtalangan shaxsning huquq va majburiyatlari) da ko‘zda tutilgan huquqiy normani ishlab chiqishda

inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston XDP fraksiyasining 2025-yil 14-martdagi 21/01-04-sonli dalolatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 14-fevraldagi 3-18-21-2947-sonli ma’lumotnomasi);

ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni yil davomida oshirib borishda tovar va xizmatlarning iste’mol narxlari indeksi darajasining o‘shir sur’atlarini inobatga olgan holda indeksatsiya qilish tartibini joriy qilish orqali ijtimoiy himoya bilan bog‘liq xavflarni profilaktikasini negativ statik holdan pozitiv dinamik holga o‘tkazishga oid takliflari 2024-yil 18-mart kuni qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-922-son Qonunning 2-moddasi bilan “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi 938-XII-sonli Qonunning 49-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston XDP fraksiyasining 2025-yil 14-martdagi 21/01-04-sonli dalolatnomasi) Bu O‘zbekistonning ijtimoiy davlat prinsipini hayotga tatbiq etilishini ta‘minlab, pensionerlarning moddiy farovonligini yanada yuksaltirishga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonning ijtimoiy davlatga transformatsiyasi sharoitida sotsial omillar (demografik, bandlik, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya) ning ijtimoiy xavfsizlikka ta‘sirini obyektiv va subyektiv hamda integral metodikalar asosida baholash orqali ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlarning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan “Ijtimoiy xavfsizlik” va “Iqtisodiy xavfsizlik” o‘quv qo‘llanmalarining II bobi hamda “Ijtimoiy xavfsizlik” o‘quv qo‘llanmasining IV, V, VII boblarini, “Sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasi” darsligining VI bobini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabining 2025 yil 22-martdagi 29/2104 sonli ma’lumotnomasi). Bu jamiyat transformatsiyasi sharoitida sotsial omillar bilan bog‘liq milliy manfaatlarini tizimlashtirish orqali potensial va real tahdidlarni bartaraf etishning ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy g‘oya va xulosalari tadqiqot natijalari chop etish tavsiya qilingan OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda, Web of Schoolers bazalariga kiritilgan jurnallarda nashr etilgani, xalqaro va respublika konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilganligi, tadqiqot natijalari asosida ilgari surilgan taklif va tavsiyalarning ijtimoiy sohalar kesimida davlat siyosatini olib boruvchi vakolatli tashkilotlar faoliyatida amaliyotga joriy etilganligi va tasdiqlanganligi ilmiy natijalarning ishonchlilik darajasini belgilab beradi.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan 1 tasi monografiya, 11 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy, 2 tasi xorijiy jurnallarda, 4 tasi xalqaro konferensiya, 10 tasi respublika miqyosida tashkillashtirilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar materiallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, 14 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 252 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, obykti, predmeti, usullari asoslangan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “ijtimoiy xavfsizlik”, “ijtimoiy himoya”, “social security” “social welfare” “social protection” tushunchalari va uning mohiyati, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining tarkibiy elementlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu tizimining obykti, predmeti, darajalari va sohalari terminologik, retrospektiv tahlil qilinib mavjud nazariy-metodologik yondashuvlar bayon qilingan. Shu bilan birga, shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi milliy manfaatlari ijtimoiy sohalar kesimida tasniflanib, ularga qaratilgan tahdidlar va ularning zamonaviy transformatsiyasi konseptual yondashuvlar asosida ochib berilgan. Davlatning ijtimoiy xavfsizlik kesimidagi manfaatlari ijtimoiy barqarorlikni hamda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, shaxsning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq hayotiy muhim manfaatlari uning xalqaro umume'tirof etilgan va konstitutsion huquq va erkinliklari bilan bog'liq holda shakllanib, rivojlanib boradi.

Jamiyatning ijtimoiy xavfsizlik bilan bog'liq hayotiy muhim manfaatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- millatlararo, konfessiyalar va fuqarolar o'rtasidagi totuvlikni ta'minlash
- aholining ijtimoiy faolligini kuchaytirish
- millatning ma'naviy tiklanishini va milliy o'zligini anglashining o'sib borishini ta'minlash
- mamlakat aholisi o'rtasida keskin tabaqalanishni yuzaga kelishining oldini olishdir
- aholi daromadlarini oshishi
- jamiyatning ma'naviy-axloqiy, madaniy va boshqa demokratik qadriyatlarini himoya qilish
- jamiyatning intellektual, ma'rifiy va madaniy salohiyatini rivojlantirish
- oilani har taraflama qo'llab-quvvatlash, aholining sog'lig'ini ta'minlash, jismonan kamol topgan sog'lom avlodni shakllantirish
- aholini ichimlik suvi, tabiiy gaz va kommunal xizmatlar bilan barqaror ta'minlash, aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish
- jamiyatda aholi bandligining ta'minlanishi

O'z navbatida, shaxs jamiyat va davlatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari hamda ijtimoiy manfaatlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ularga malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim tizimi va aholi bandligini ta'minlashni, ijtimoiy himoya institutini kuchaytirishni, jamiyatning taraqqiyoti uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishni va mamlakatning barqaror rivojlanishini kiritish mumkin.

Ijtimoiy xavfsizlik tizimidagi manfaatlar birinchi navbatda ijtimoiy sohaning mustaqilligini ta'minlash, uning barqarorligi va mustahkamligiga erishish hamda uning kelajakda yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish bilan uzviy ravishda bog'liq.



**3-rasm. Ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlar<sup>15</sup>**

Jamiyatdagi transformatsion jarayonlar, milliy manfaatlarining makon va zamonning xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgarib borishi oqibatida mos ravishda tahdidlarning ham zamonaviy transformatsiyasi kuzatilmoqda (4-rasm).


Zamonaviy jamiyatda davlat ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy subyekti sifatida namoyon bo'lib, o'z manfaatlari bilan bir qatorda shaxs va jamiyatning manfaatlariga qarshi qaratilgan tahdidlarni sotsial omillarni tizimli boshqarish orqali bartaraf qilish, salbiy ta'sirini minimallashtirishga harakat qilmoqda. Bu bevosita ijtimoiy sohalarda huquqiy, kafolatli, ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirish va sotsial omillar bilan bog'liq xavflarning darajasi va ehtimoliy ta'sir kuchini oldindan aniqlashga qaratilgan "risklarni boshqarish tizimi" orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, jamiyatdagi munosabatlarning xavfsizligi ham ijtimoiy meyorlarga bog'liq bo'lib, o'z navbatida xavfsizlik elementlarining mazmuni va qonuniyligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, bugungi jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga oid davlat siyosati huquqiy islohotlar yo'li bilan mustahkamlanib, o'z tarkibiga nafaqat shaxsning ijtimoiy huquqlari va ularning ta'minlanishiga oid kafolatlarni qamrab olish balki, davlat, fuqarolik hamda ijtimoiy institutlarning mamlakatda ijtimoiy xavfsizlikni barqarorlashtirish yuzasidan vakolatlarini, javobgarligini belgilovchi alohida huquqiy normalar bilan boyitilib borilmoqda.

<sup>15</sup> United nations Research Institute for Social Development Social security: issues, challenges and prospects// <https://www.un.org/sg/en/global-leadership/united-nations-research-institute-for-social-development/all>, 21.02.2024.



#### **4-rasm. Ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlarning zamonaviy transformatsiyasi**

Qolaversa, ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi omillar tasniflanib, ta'sir darajasi yuqori bo'lgan birlamchi sotsial omillar ajratib olindi (5-rasm). Shuningdek, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, ushbu yondashuvlar kesimida sotsial omillarni baholash metodikalari, usullari yoritilgan hamda sotsiologik yondashuv va empirik tahlil metodlari orqali ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash zarurati va sotsiologik baholashning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.




5-rasm. Ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi omillar tasnifi<sup>16</sup>

<sup>16</sup>Mazkur omillar xorijiy va mahalliy ekspertlarning qarashlari hamda sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillarni baholash tizimi: mavjud holat va muammolar**” deb nomlangan ikkinchi bobida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashda sotsial omillarni rivojlantirishga oid davlat siyosati tahlil qilinib, O‘zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillarni baholash mexanizmining tarkibiy tuzilishidan kelib chiqib, mavjud muammolarni ham guruhlarga ajratilgan. Ularni qonunchilikdagi bo’shliqlar va normativ-huquqiy muammolar, sohada mavjud institutsional muammolar, ma’lumotlar bilan ishlash hamda ilmiy-metodologik muammolar ko‘rinishida dekompozitsiya qilish orqali sotsial omillarni baholashdagi samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillarni baholash jarayoni bilan bog‘liq mavjud holatni SWOT-tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi kuchli hamda kuchsiz jihatlarga e’tibor qaratish mumkin (6-rasm).




**6-rasm. Ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillarni baholash jarayonining SWOT-tahlili.**

Olib borilgan SWOT-tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta’sirini baholash bilan bog‘liq zaif jihatlar tahdidlarni o‘z vaqtida samarali bartaraf etish salohiyatini kamaytirishi mumkin. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, “big data”, “data analitics”, sun’iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalar hamda modellashtirish, loyihalashtirish, strategik rejalashtirish, tizimli monitoring qilish, ekonometrik tahlil qilishga oid yangi metodikalarni qo‘llash orqali yuqoridagi salbiy holatlarni oldini olish mumkin. Bu, o‘z navbatida, sohada ilmiy izlanishlarni jadallashtirish, rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalaridan samarali foydalanishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari sotsial omillarni baholash samaradorligi uning institutsional va huquqiy asoslari (mavjud huquqiy bo'shliqlar, ochiqlik va shaffoflik va b.) ga, metodologik va ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlari (ijtimoiy hamkorlik darajasi, metodik samaradorlik, ma'lumotlarning ishonchliligi, ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va b.) ga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, muammolar dekompozitsiyasi doirasida yoritilgan me'yoriy-huquqiy, institutsional metodologik va ma'lumotlar bilan ishlashga oid muammolar baholash subyektlarida takrorlanuvchi funksiyalarni, ijtimoiy risk va tahdidlarga nisbatan mas'uliyatsiz yondashuvni vujudga keltirishi mumkin. Buning oqibatida baholash jarayonida foydalaniladigan ma'lumotlar o'rtasida tafovut yuzaga kelishi, ishonchsizlik kayfiyatining ortishi, xalqaro reyting va indekslarga kiritilmaslik yoki juda past ko'rsatkichlar fonida davlat imijiga putur yetishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashga ta’sir qiluvchi birlamchi sotsial omillar”** deb nomlangan uchinchi bobida demografik, aholi bandligi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya omillarining mamlakatimiz ijtimoiy xavfsizligiga ta’siri milliy manfaatlar va ularga qaratilgan tahdidlar kesimida obyektiv, subyektiv va integral metodikalar, indikativ yondashuv asosida baholanib, yuqoridagi sotsial omillar bilan bog‘liq risklarning darajasi aniqlandi. Bunda tahliliy sotsiologik tadqiqotlarning natijalaridan, ekonometrik tahlillardan keng foydalanildi. Shu bilan birga, sotsial omillar kesimidagi manfaatlardan kelib chiqib baholash metodikasi (sotsial omil bilan bog‘liq vaziyatni monitoring qilish, salbiy tendensiyalarni aniqlash va ularni yuzaga keltiruvchi sababiy bog‘liqliklarni tahlil qilish va ushbu sabablarni bartaraf qiluvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini ekspertizadan o‘tkazish) asosida ijtimoiy risk va xavflar, ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi shakllantirildi (7-rasm).



**7-rasm. Sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta’sirini baholash metodikasi**

Yuqoridagi metodika doirasida jamiyatdagi transformatsion jarayonlar asosida baholangan sotsial omillar tahlili mamlakatimiz ijtimoiy xavfsizligiga ta’sir qilishi

mumkin bo'lgan bir qator tendensiyalar mavjudligini ko'rsatmoqda. Ularni baholashda 0 dan 1 gacha shkala asosida integral baholash parametrlaridan foydalanildi. Bunda 0,8 va undan yuqori holatda ijtimoiy xavfsizlik barqaror, 0,7-0,799 oralig'idagi holatda ijtimoiy xavfsizlik yaxshi, 0,55-0,699 oralig'idagi holatda ijtimoiy xavfsizlik qoniqarli, 0,55 dan past ko'rsatkich ijtimoiy xavfsizlik holati qoniqarsiz ekanligini bildiradi. Ushbu bob doirasida ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillar tizimli va sotsiologik tahlil usullari orqali baholandi va 2030-yilga qadar prognoz parametrlari shakllantirildi.


Xususan, aholining mehnatga layoqatliligi yuzasidan taqsimlanishi yuzasidan keksa aholi sonining oshishi va mos ravishda 0-15 yoshdagi aholi ulushining qisqarishi (2000-2024 yillar davomida qariyalar ulushi 57% o'sgan, 0-15 yoshdagilar ulushi 32%ga kamaygan) kuzatilmoqda. Shu bilan birga, mehnatga layoqatli aholiga demografik bosimning oshib borishi (nisbatan sust ko'rinishda), erta tug'ruq va qarindoshlar o'rtasidagi nikohning saqlanib qolayotganligi (asosiy sabab: gender rollariga nisbatan an'anaviy qarashlarning saqlanib qolishi (23%), munosib kelin/kuyov topishdagi qiyinchiliklar (35%)), shar'iy nikoh hisobiga fuqarolarning nikohga kirish ko'rsatkichining kamayishi (2021-2024 yillarda 21%ga), oilaviy ajrimlarning o'sishi fonida oilaning mustahkamlik darajasi salbiy tomonga o'zgarishi (asosiy sabab: kelin va/yoki kuyovning oilaga nisbatan mas'uliyatsizligi (16,5%), ishsizlik yoki kam daromadlilik (15%)) kabi tendensiyalar kuzatilmoqda.

Ushbu tendensiyalar o'z navbatida, aholi bandligi omilining ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirida ham namoyon bo'lib, olib borilgan monitoring natijalari aholi bandligini ta'minlashda demografik omil nisbatan barqaror bo'lsa-da, u bilan bog'liq tahdidlar mehnat bozorining keskinlik darajasida (me'yoridan ikki baravar ortiq), norasmiy migratsiyaning ulushida (94%), migratsion o'sish koeffitsiyentida (7,1%) mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o'lim koeffitsiyentida (4,1%) kuzatilmoqda. Shu bilan birga, hosilaviy salbiy oqibatlari sifatida yuzaga chiqayotgan yoshlar va ayollarning potensial ishsizlik ko'rsatkichlari nisbatan baland bo'lib (14%), u ta'lim va malaka darajasi bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Aholi bandligini ta'minlashdagi ijtimoiy xavfsizlik holatini subyektiv baholash ko'rsatkichlari joriy mehnat faoliyati va mutaxassisligining mutanosiblik darajasining pastligini (32%), ishga joylashishda qiyinchiliklar (to'siqlar) ga duch kelish darajasining yuqoriligini (60%) namoyon qilmoqda.


Obyektiv va subyektiv baholash metodikalari asosida olib borilgan empirik tahlillar aholi bandligini omilini ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirining integral bahosi norasmiy mehnat migratsiyasi (0,25), norasmiy bandlik (0,38), potensial ishsizlik (0,37) yo'nalishlarida nisbatan salbiy xarakter kasb etayotganligini ko'rsatmoqda (8-rasm).

Shuningdek, mehnat bozorining istiqboldagi o'zgarish dinamikasida nisbatan kam malaka talab qilinadigan ishlar qisqarib (2022-2050 yillarda 41% ga), yuqori malaka va intellekt talab qilinadigan ishlarning ulushi o'sishi (2022-2050 yillarda 80%ga) hamda raqamlashtirish, robotlashtirish, texnologik taraqqiyot, sun'iy ongning global miqyosdagi potensial ishsizlik darajasiga salbiy ko'rsatishi prognoz qilinmoqda.



**8-rasm. O‘zbekistonda aholi bandligini ta‘minlashdagi ijtimoiy xavfsizlik holatini integral baholash<sup>17</sup>**

Olib borilgan tadqiqot natijalari va yuqoridagi ko‘rsatkichlar tahlili asosida O‘zbekistonda aholi bandligi tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari shakllantirildi. Unga ko‘ra, norasmiy bandlik, potensial ishsizlik va norasmiy mehnat migratsiya bilan bog‘liq risklar nobarqaror holatni aks ettirib, bandlik omilining ijtimoiy xavfsizlikka ta‘siri qoniqarsiz holatni aks ettirmoqda (9-rasm).



**9-rasm. O‘zbekistonda aholi bandligi tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining prognoz parametrlari<sup>18</sup>**

Ta‘lim omilining ijtimoiy xavfsizlikka ta‘sirini baholash natijalari ushbu yo‘nalishda bir qator transformatsion jarayonlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotlari hamda sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>18</sup> Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Xususan, maktab ta'limi yo'nalishida qamrov darajasi aholi savodxonligi bilan risklarni bartaraf qilgan bo'lsa-da, ta'lim tizimiga tushayotgan demografik bosim bilan bog'liq xavflar (chegaraviy me'yorga nisbatan 2 barobarga ortiq) saqlanib qolmoqda. Natijada ta'lim infratuzilmasining shakllanish darajasi xalqaro me'yorga nisbatan pastligi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xususan, umumta'lim maktablarida 1 smenada ta'lim oluvchi o'quvchilar ulushi 22% ni tashkil qilib, xalqaro me'yorga nisbatan qariyb 4 barobar, bir o'quvchi uchun ajratilishi kerak bo'lgan maydon ulushi, adabiyotlar bilan ta'minlanishi kabi ko'rsatkichlarning chegaraviy me'yorga nisbati qariyb 2 barobar, har bir o'quvchiga to'g'ri keladigan kompyuter soni esa bir necha 10 barobar past ko'rsatkichni qayd etgan. Shu bilan birga, bir o'ringa to'g'ri keladigan o'quvchilar ulushi 1,3 tani tashkil qilib, maktab ta'limini o'quvchi boshiga moliyalashtirish holati AQSh dollari ekvivalentida 354 dollarni (xalqaro tadqiqotlar natijasiga asosida 1200 AQSh dollari miqdorida tavsiya qilinadi) tashkil qilmoqda.

Ta'lim omilining ta'sirini subyektiv baholash metodikasiga ko'ra, aholining maktab ta'limi sifatidan qoniqish darajasi 38% ni, aholining maktab darsliklaridan qoniqish darajasi 32%ni, mutaxassisligi doirasida egallagan bilimlaridan qoniqish darajasi (oliy ta'limda) 60%ni, o'qituvchilarning mehnat sharoitlaridan umumiy qoniqish darajasi 46%ni, aholining ta'lim tizimidagi raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi 31%ni tashkil qiladi.

Yuqoridagi obyektiv va subyektiv baholash indikatorlarning tahlili asosida integral baholasak, demografik bosim va ta'lim sifatiga oid ko'rsatkichlarda vaziyat nisbatan nobarqaror ekanligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, qolgan ko'rsatkichlar – aholining maktab ta'limidan qoniqishi, ta'lim tizimini moliyalashtirish va raqamlashtirish, o'quv-metodik hamda infratuzilmaviy ta'minotiga oid ko'rsatkichlar nisbatan bir-biriga yaqin (10-rasm).




10-rasm. O'zbekistonda ta'lim tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatini integral baholash<sup>19</sup>

Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda ta'lim tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ham shakllantirildi. Unga ko'ra, demografik bosim bilan bog'liq risklar nobarqaror holatni aks ettirsa, ta'lim sifati,

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ma'lumotlari hamda sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

o'quv-metodik ta'minot bilan bog'liq risklar istiqbolda nisbatan barqarorlashishi kutilmoqda (11-rasm).



**11-rasm. O'zbekistonda ta'lim tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining prognoz parametrlari<sup>20</sup>**

Ijtimoiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlovchi bosh omillardan biri bo'lgan sog'liqni saqlash omilining ta'sirini baholash yuzasidan olib borilgan empirik tahlil natijalarida ekologik omillarning aholi salomatligiga ta'sirida Toshkent shahridagi ko'rsatkichlar boshqa hududlarga nisbatan salbiy ekanligini kuzatish mumkin. Natijada atrof-muhit ta'sirida yuzaga kelayotgan nafas yo'llari kasalliklari Toshkent shahrida nisbatan ko'pligini kuzatish mumkin, biroq boshqa hududlardagi ekologik vaziyatning nisbatan barqarorligi umumiy tahlil natijalarining ijobiy bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. Aholining sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik natijasida ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar: ortiqcha vazn bilan bog'liq kasalliklar, yurak va qon-tomir kasalliklari, qandli diabet, saraton kelib chiqishi indikativ baholanganda qon aylanish tizimi kasalliklarida tahdid darajasida bo'lib, qolgan kasalliklarga nisbatan salbiy tendensiyalarni namoyon qilgan.

Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimiga demografik bosim bilan bog'liq risk va tahdidlar tahlili aholi tarkibida mehnat yoshidan kichik aholining ulushi nisbatan yuqoriligi, tug'ilish umumiy koeffitsiyentining me'yordan balandligi, aholi soniga nisbatan shifokorlar va shifoxona o'rinlarining kamligini ko'rsatmoqda.

Bu, o'z navbatida, sohani moliyalashtirish ko'rsatkichlariga ham ta'sir qilib, xalqaro me'yorlarga ko'ra, aholi jon boshiga nisbatan moliyalashtirish ko'rsatkichi 250 AQSh dollari bo'lishi tavsiya qilingan. O'zbekistonda yangi tartibga ko'ra, davolash natijalaridan kelib chiqib moliyalashtirish mexanizmi yo'lga qo'yilmoqda (Eski tartibga ko'ra, yotoq o'rniga qarab moliyalashtirilgan). Qolaversa, sohani moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'larning ulushi past bo'lib, jamiga nisbatan 13% ni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, umumiy moliyalashtirish ko'rsatkichida ish haqining ulushi me'yorga nisbatan baland bo'lib, 83% ga teng bo'lmoqda.

<sup>20</sup> Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


Shuningdek, tibbiy xizmatlardan foydalanishda aholining to'g'ridan-to'g'ri to'lovlari 40% gachani tashkil qilmoqda (sotsiologik tadqiqot natijasi asosida aniqlangan). Tibbiyot uskunalari bilan ta'minlanganlik darajasi nisbatan past bo'lganligi tufayli viloyat tibbiyot muassasalarida bajariladigan yuqori texnologik amaliyotlar ulushi 51% ga teng bo'lmoqda. Bundan tashqari, eng yaqin birlamchi tibbiyot muassasalarigacha bo'lgan masofa (hududlarda 7 kmgacha), aholi murojaatlarining birlamchi tibbiyot bo'g'inida yechimini topish darajasi (45%), ularning oilaviy shifokorlar bilan ta'minlanganlik darajasi (82%) kabi ko'rsatkichlarning nisbatan pastligi kasalliklarni erta aniqlash darajasi (53%) ga salbiy ta'sir etmoqda. Natijada, onalar (13,9%) va go'daklar (8,7%) o'limi koeffitsiyentining nisbatan baland bo'lishiga, ko'p uchraydigan ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni (kardiologik, endokrinologik, onkologik, nefrologik, ortopedik va b.) erta aniqlash va profilaktikasining samaradorligi (50%) ga hamda tibbiyot sohasining raqamlashganlik darajasi (15%) ga salbiy ta'sir qilmoqda.

2023-yilga qadar dori vositalarining nojo'ya ta'sirlarini elektron monitoring qilish tizimining mavjud bo'lmaganligi sababli turli dori vositalaridan, xususan, Dok-1 max vositasidan 69 nafar bolaning vafot etishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelgan.

Sog'liqni saqlash omilining ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini subyektiv baholash ko'rsatkichlari respondentlarning ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatidan (30%), ular uchun undiriladigan to'lovlardan (42%), davolash muassasalari faoliyatidan (46%) qoniqish darajalari nisbatan past bo'lsa, aholining emlash tizimidan (67%), birlamchi bo'g'indagi tibbiy xizmatlardan (58%) hamda tez tibbiy yordam tizimidan (79%) qoniqish darajasi boshqalarga nisbatan ijobiy ko'rsatkichlarni o'zida ifodalagan. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining tibbiy malaka oshirish tizimidan qoniqish darajasi (27%) ham salbiy baholangan. Bundan tashqari, so'rov natijalari sohasining korrupsiyalashganlik darajasining yuqoriligi (63%) va mahalliy dori vositalariga nisbatan aholining ishonch darajasi past ekanligi (32%) ni ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, tibbiyot tizimining raqamlashish darajasi, tibbiy xizmat sifati, dori vositalarining ta'minoti, demografik bosim bilan bog'liq risklar istiqbolda nisbatan barqarorlashishi kutilmoqda (12-rasm).

Ushbu ko'rsatkichlar kabi ijtimoiy himoya omilining ta'siri ham ijtimoiy xavfsizlik holatini va mamlakatning rivojlanish darajasini o'zida ifoda etadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya tizimiga tushayotgan demografik bosimning va mos ravishda byudjetdan moliyalashtirish ko'rsatkichlari ham o'sib borayotganligini ko'rsatmoqda. Shunga qaramasdan, xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining 50 % ga yaqinini ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olishda qiyinchiliklarga duch kelinmoqda. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy yordam paketlarini iste'mol savatchasi, turmush kechirish minimumi asosida belgilash hamda inflyatsiya va narxlarning o'sish indeksiga nisbatan indeksatsiya qilishga to'sqinlik qilmoqda.



### 12-rasm. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining prognoz parametrlari<sup>21</sup>

Xususan, 2025-yilga kelib minimal iste'mol xarajatlari bir oy uchun 669 ming so'm sifatida belgilanib, o'tgan yilga qaraganda 7,7% ga o'sgan<sup>22</sup> (2024-yilda inflyatsiya 9,8% ga teng bo'lgan).

Bundan tashqari, ijtimoiy dasturlarning, jumladan kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligi ular faoliyatini muvofiqlashtirishga oid mavjud muammolarning yechimi bilan bog'liq bo'lib, bunda sohaning raqamlashganlik darajasi ham muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, raqamlashish darajasining o'sishi inson omilining pasayishiga, shaffoflikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, fuqarolarning sohaga oid bo'lgan o'z huquq va majburiyatlaridan xabardorlik darajasining pastligi (ijtimoiy muhtoj aholining 17%i xabardor) davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larni belgilangan tartibda olishga to'sqinlik qilmoqda. Buning natijasida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining turmush darajasi o'zgarishsiz qolishi yoki nisbatan sekin o'sishiga hamda korrupsion jinoyatlarga aralashib qolishlariga olib kelmoqda.


Ijtimoiy himoya tizimidagi joriy holatni obyektiv yondashuv asosida ijtimoiy xavfsizlik kesimida baholaydigan bo'lsak, turmush kechirish minimumidan kam daromadga ega aholi ulushi (8,9%), desil koeffitsiyenti (7,1 barobar), turmush kechirish minimumining o'rtacha ish haqiga nisbati (7 barobar) kabi ko'rsatkichlarda me'yordan og'ish holatlari kuzatilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy to'lovlar miqdorining minimal iste'mol xarajatiga (669 ming so'm) nisbati bilan bog'liq me'yoriy ko'rsatkichlarning og'ish darajasi nisbatan yuqori ekanligini bola pullarining, kam ta'minlanganlar uchun moddiy yordamlarning to'lov qobiliyatida kuzatilmog'ida.

Ijtimoiy xavfsizlik holatini subyektiv baholashda foydalanilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya obyektlarning ushbu yo'nalishdagi davlat dasturlaridan qoniqish darajasining ekonometrik tahlili ijtimoiy himoya dasturlaridan qoniqish darajasi ularga ko'rsatilgan moddiy ta'minot bilan ta'lim darajasi va salomatlik ko'rsatkichi bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda.

<sup>21</sup> Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.


<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari

Davlatning ijtimoiy ko‘maklariga muhtoj aholi guruhini aniqlash va ularni ijtimoiy himoya dasturi bilan to‘liq qamrab olishdagi yuqoridagi risklar jamiyatda ijtimoiy tanglikni kuchaytirishga, yangi tahdidlarni yuzaga kelishiga, turmush sifati va sharoitining yomonlashuvi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin (13-rasm).



### 13-rasm. Ijtimoiy himoya sohasidagi risklarning ijtimoiy xavfsizlikka ta’siri

Yuqoridagi risklarni bartaraf etishda ko‘plab davlatlarda olib borilgan tadqiqot natijalari doirasida mamlakatdagi aholining mehnat bozoriga integratsiyasi holatidan kelib chiqib, shartli ravishda 4 toifaga bo‘lib olinadi. Ushbu tadqiqotlar metodologiyasi asosida O‘zbekistondagi aholi mehnat bozoriga yaxshi integratsiya qilganlar, adaptatsiya qilishga qiynalayotganlar, mehnat bozorida o‘rnini topishda qiyinchiliklarga duch kelayotganlar, kambag‘allik bo‘lag‘asidagilar va kambag‘al aholi kesimida toifalansa, mehnat bozorida o‘rnini topishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan aholi nisbatan ko‘proqni tashkil qilmoqda (14-rasm).




### 14-rasm. Ijtimoiy xavfsizlik kesimida aholining ijtimoiy himoya qilish vektorini belgilashning konseptual modeli<sup>23</sup>

Yuqoridagi toifalarga ajratilgandan so‘ng, yuqori guruhlardagi aholi sonini oshirib borish hisobiga 4 guruhdagi aholi sonini minimallashtirish eng muhim vazifa hisoblanadi.


<sup>23</sup> Modelda ifodalangan ko‘rsatkichlar ekspert so‘rovlari, xalqaro ekspertlarning bahosi va sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida tizimlashtirilgan.

Yuqoridagi tahlil natijalari asosida O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari shakllantirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, ijtimoiy himoya paketlarining to‘lov qobiliyati, sohaning raqamlashish darajasi, aholi tarkibida kam ta‘minlanganlarning ulushi bilan bog‘liq risklar hozirda mavjud va ularning holati istiqbolda nisbatan barqarorlashishi kutilmoqda (15-rasm).



**15-rasm. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimidagi ijtimoiy xavfsizlik holatining prognoz parametrlari<sup>24</sup>**

Mazkur bob doirasida olib borilgan tahlil va tadqiqot natijalarini umumlashtirilganda, O‘zbekiston ijtimoiy xavfsizligiga ta‘sir qiluvchi sotsial omillar ichida ta‘lim omili nisbatan barqaror bo‘lsa, aholi bandligi omili nisbatan nobarqaror xususiyatni o‘zida ifodalagan (16-rasm).



**16-rasm. O‘zbekistonda sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta‘siriga oid prognoz parametrlari<sup>25</sup>**

Umuman olganda, yuqoridagi sotsial omillar kesimida ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlar va risklarni bartaraf etish orqali bandlikka ko‘maklashish, ta‘lim, ijtimoiy himoya va tibbiy xizmatlarining samaradorligini oshirish mumkin. Shu nuqtayi nazardan


<sup>24</sup> Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>25</sup> Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatida risk va xavflarni bartaraf etishga qaratilgan “Aholi bandligini ta’minlash”, “Ijtimoiy himoya”, “Aholi salomatligi – 2030” milliy strategiyalari hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan va ular doirasida ushbu risk va tahdidlarni bartaraf etish yoki ularning salbiy ta’sirini minimallashtirish yuzasidan ustuvor yo‘nalishlar belgilanib, tegishli maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish rejalashtirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillarni baholash va ijobiy ta’sirini oshirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida ijtimoiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi sotsial omillarni baholash bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribalari asosida yuqoridagi omillarning ta’sirini baholash jarayonining metodik asoslarini takomillashtirish yuzasidan istiqbolda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va xulosalar ishlab chiqilgan. Xususan, 2024-yilda e’lon qilingan “Ijtimoiy rivojlanish indeksi” (Social progress index) da 90,38 ball bilan 1-o‘rinni egallagan Daniya (sotsial omillar 6 bosqichda miqdoriy va sifatiy baholanadi) Germaniya, AQSh, MDH davlatlaridan Rossiya Federatsiyasi hamda Qozog‘iston tajribalari tahlil qilingan.

Ilg‘or xorijiy tajribalar va samarali metodikalar tahlili asosida mamlakatimizda sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta’sirini baholashga oid sotsiologik tadqiqot obyektlari va ularning ichki parametrlari shakllantirildi (17-rasm).




17-rasm. Tadqiqot obyektlari va ularning ichki parametrlari<sup>26</sup>.

Sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta’sirini subyektiv baholashga qaratilgan sotsiologik so‘rovnomaning modifikatsiyalashtirilgan shakli orqali ijtimoiy risk va tahdidlarning shakllanish ehtimolini, shaxsga ehtimoliy ta’sirini, qamrov darajasini aniqlash maqsadida olib borilgan tahlil natijalari asosida sotsial omillarning o‘zaro

<sup>26</sup> Mahalliy va xalqaro tadqiqotlar hamda ekspert so‘rovi asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

bog'liqligini ifodalovchi korrelyatsion jadval ishlab chiqilgan bo'lib, bu risk va tahdidlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish imkonini bergan (18-rasm).




**18-rasm. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga ta'sir qiluvchi sotsial omillarning korrelyatsion matritsasi<sup>27</sup>**

Shu bilan birga, O'zbekistonda sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ijobiy ta'sirini oshirishning asosiy istiqbolli yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ilgari surilgan:

- ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish;
- ijtimoiy institutlarni, jumladan, oila institutini qo'llab-quvvatlash;
- sotsial omillarning ijobiy ta'sirini texnologik qo'llab-quvvatlash.

O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni yanada mustahkamlash, fuqarolarni ijtimoiy ehtiyojlari asosida kengroq himoya qilish, resurslarni qayta taqsimlash va jamiyatdagi barcha qatlamlarni qo'llab-quvvatlash uchun AQSh ijtimoiy xavfsizlik tizimidagi tajriba va modellar tahlili asosida, ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini mamlakatimizda joriy qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish orqali ijtimoiy xavflarning salbiy ta'sirini minimallashtirish mumkin (19-rasm).




**19-rasm. Ijtimoiy sug'urta tarmog'i<sup>28</sup>**

<sup>27</sup> Sotsiologik tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>28</sup> Xalqaro tajribalar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning ijtimoiy davlatga transformatsiya bo‘lish jarayonida pensiyalar miqdorlarini yil davomida tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlari indeksi darajasining o‘shish sur‘atlarini inobatga olgan holda oshirib borish tartibini joriy qilish, shaxsning ijtimoiy xavfsizligini ta‘minlashda nogironligi bo‘lgan shaxslarning sudda, surishtiruv va tergovning barcha bosqichlarida ishtirok etishini yengillashtirish orqali odil sudlovdan foydalanish huquqini kafolatlash hamda xotin-qizlar, bolalar, og‘ir ahvolga tushib qolgan (yoki tushish xavfi yuqori bo‘lgan) shaxslar va oilalarning manfaatlarini ko‘zlab ijtimoiy himoya agentligi tomonidan sudlarga qilingan murojaatlardan davlat boji undirilmasligi maqsadga muvofiq.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning ijtimoiy davlatga transformatsiya bo‘lishi fonida ijtimoiy sohalardagi islohotlar jadallashib bormoqda. Shunga qaramasdan, sotsial omillar – demografiya, bandlik, ta‘lim, ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq sohalarda turli muammolarni keltirib chiqayotgan risklar saqlanib qolmoqda. Ijtimoiy sohalarda faoliyat olib borayotgan kadrlarning malakasini oshirish, tizimni raqamlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, aholiga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish olib borilayotgan islohatlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, islohotlar sharoitida avvaldan mavjud bo‘lgan va transformatsion jarayonlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni monitoring qilish va barvaqt bartaraf etish uchun risklarni boshqarish tizimi joriy qilishga ehtiyoj mavjud (20-rasm).



**20-rasm. Sotsial omillar bilan bog‘liq risklarni boshqarish tizimi<sup>29</sup>**

Shuningdek, oila institutini yanada mustahkamlash, oilalarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy turmush sharoitlarini yaxshilash va farovonlikka erishish sotsial omillarning salbiy ta‘sirini minimallashtirish imkonini berib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun akselerator vazifasini bajaradi.

Jamiyatdagi mavjud transformatsion jarayonlar ta‘sirida O‘zbekistonda oila instituti bilan bog‘liq tahdidlarni bartaraf qilish, oila institutining ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlashdagi ijobiy ta‘sirini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda istiqbolli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- yoshlarni oilaga tayyorlash va oiladagi ma‘naviy muhitni yaxshilash;
- oilalarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va oilada turmush farovonligini oshirish;

<sup>29</sup> Muallif ishlanmasi

- oilalarga xizmat ko'rsatuvchi dasturlarni rivojlantirish.

Sotsial omillarning ijobiy ta'sirini texnologik qo'llab-quvvatlash ham muhim istiqbolli yo'nalish bo'lib, u, o'z navbatida, inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sohalardagi global transformatsion jarayonlar tahliliga ko'ra, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari orqali sotsial omillarning ijobiy ta'sirini oshirishda istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Sun'iy intellekt inson aqliy qobiliyati kabi taqlid qilish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasi bo'lib, undan ijtimoiy ahamiyatga ega ma'lumotlarni tahlil qilish, tashxis qo'yish, prognoz qilish, muqobil qarorlarni ishlab chiqish kabi vazifalarni bajarishda foydalanish mumkin<sup>30</sup>.

Uning bu imkoniyatlari orqali aholi bandligiga ko'maklashish dasturlarining samaradorligini va ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimi, ko'nikmalarini malaka talablari asosida shakllantirish, ijtimoiy kasalliklarga tashxis qo'yish, murakkab tahlillarni amalga oshirish, davolash vositalarining inson organizmiga ta'sirini baholash va prognoz qilish, kasallikni keltirib chiqaruvchi omillarni, shart-sharoitlarni tahlil qilish, molekulyar kombinatsiyalarni tahlili asosida zamonaviy dori vositalarini ishlab chiqish, davolashning samarali metodikalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, aholining kam ta'minlanganlik darajasini aniqlash, turmush sharoiti va oilaning farovonligini oshirish istiqbollarni baholash mumkin bo'lib, bu o'z navbatida sotsial omillar bilan bog'liq ijtimoiy risklar bartaraf etish bilan birga inson omilining o'sishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

“Jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi sotsial omillar” mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ilgari surildi:

1. Ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning ajralmas va muhim tag tizimi bo'lib, u shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy sohalardagi hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi risk, xavf va tahdidlardan himoyalanganlik holatini anglatadi hamda jamiyat transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi sotsial omillar bilan bog'liq risk, xavf va tahdidlar zamonaviy qiyofasi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining makon va zamon kesimidagi o'zgarib borish dinamikasi bilan bog'liq.

2. Zamonaviy jamiyatda davlat ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim subyekti bo'lib, u ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishga hamda xavflarning darajasi va ta'sir doirasidan kelib chiqib, jamiyatdagi munosabatlarning xavfsizligini belgilaydi. Shu bilan birga, sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka salbiy ta'siri mamlakatning iqtisodiy siyosatida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklariga bog'liq bo'lib, o'z natijasini aholining turmush tarzi va farovonligida aks ettiradi. Bu, o'z navbatida, hosilaviy omillar va tahdidlar (ishsizlik, kambag'allik, migratsion tahdidlar, ijtimoiy tanglik va b.)ni yuzaga keltiradi.

3. Sotsial omillarning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini sotsiologik baholash nisbatan samarali mexanizm bo'lib, u orqali mamlakatning ijtimoiy siyosatini rejalashtirish, olib borish va monitoring qilish, shuningdek, islohotlar samaradorligini baholash, davlat boshqaruvida jamoatchilikning ishtirokini oshirish, ijtimoiy risk va

<sup>30</sup> <https://iep.utm.edu/artificial-intelligence/>. Murojaat etilgan sana 03.02.2025 y.

tahdidlarni yuzaga keltirgan sabablari to'g'risidagi empirik ma'lumotlarni miqdoriy va sifatiy tahlil qilish mumkin.

4. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda demografik omil davlat siyosatining barcha yo'nalishlariga o'z ta'sirini o'tkazib, ijtimoiy siyosatni loyihalashtirish, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish, prognozlashtirish hamda ustuvor yo'nalishlarini belgilashda hududlardagi aholi soni, yosh-jins tarkibi hamda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi inson kapitali bilan bog'liq ko'rsatkichlarga tayanish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

5. Ijtimoiy xavfsizlikka aholi bandligi omilining ta'sir darajasi demografik, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya omillarning umumiy ta'siri bilan bog'liq bo'lib, ularni tartibga solish aholi bandligi bilan bog'liq istiqboldagi ko'rsatkichlarni mustahkamlash, xalqaro talablarga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash va mehnat bozori konyunkturasini rivojlantirishni texnologik qo'llab-quvvatlash imkonini beradi va o'z navbatida, mavjud tahdidlarning ta'sirini minimallashtirishga xizmat qiladi.

6. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga oid davlat siyosatida ta'lim omili birlamchi ahamiyat kasb etib, uning ijobiy ta'sirini oshirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning uyg'unligini ta'minlash va qamrov darajasi va sifatini texnologik qo'llab-quvvatlash orqali oshirib borish ijtimoiy-gumanitar rivojlanish darajasiga akselerativ ta'sir ko'rsatishi mumkin.

7. Aholi salomatligini saqlash omili ijtimoiy xavfsizlikning ajralmas qismi bo'lib, sotsiologik nuqtayi nazardan baxt indeksi, ijtimoiy farovonlik kabi indekslar uning asosida shakllanadi. Shu bilan birga, aholining salomatlik ko'rsatkichlari uning daromadi va turmush tarzini shakllantirishda asosiy rol o'ynab, salomatlik bilan bog'liq salbiy tendensiyalar ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi hosila sotsial omillari – ishsizlik, kambag'allik, migratsiya, ijtimoiy institutlarning degradatsiyasi kabilarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

8. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda ijtimoiy himoya omili hosilaviy xususiyatga ega bo'lib, yuqorida tahlil qilingan boshqa sotsial omillarning salbiy oqibatlari, mamlakatning iqtisodiy hamda demografik siyosatida yo'l qo'yilgan xatolar natijasida ushbu omilning salbiy ta'siri oshib boradi. Buning oldini olish uchun strategik vektori sifatida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatida demografik, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholi bandligiga ko'maklashish kabi yo'nalishlarga ustuvor tus berish hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirishda aholi daromadlarini doimiy oshirib borish va ijtimoiy sug'urtalash mexanizmlarini joriy qilishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

9. Sotsial omillar bilan bog'liq risk va tahdidlarni erta aniqlash va samarali bartaraf etish uchun ijtimoiy sohalarida xavf-xatarlarni tahliliga asoslangan risklarni boshqarish tizimini amalga oshirish, mamlakatimizning ijtimoiy davlatga transformatsiyasi sharoitida ta'lim infratuzilmasiga demografik bosimni kamaytirishda prognoz parametrlaridan kelib chib "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturi doirasida ta'lim tizimining infratuzilmaviy ta'minotini rivojlantirish istiqbolda o'z samarasini beradi.

10. Mehnat bozorida transformatsion jarayonlardan kelib chiqib "Kelajak kasblari" loyihasi asosida yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashga ko'maklashib, sotsiologik so'rovnomalar o'tkazish orqali

ijtimoiy dasturlardagi ishtirokini va kasbiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholash orqali ularni istiqbolda turli ijtimoiy risklardan himoya qilish mumkin.

11. Shu bilan birga, ijtimoiy xavfsizlikning huquqiy ta'minotini takomillashtirishda joriy qilinayotgan (yoki mavjud) me'yoriy qoidalarni belgilashda ekotizimli yondashuvni (muammoli vaziyatga ta'sir qiluvchi barcha omillarning salbiy ta'sirini hisobga olgan holda minimallashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv) qo'llash orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Bunda ijtimoiy xavfsizlikka oid milliy manfaatni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi risk va tahdidlarni monitoring qilish bilan bog'liq institutsional asoslarni rivojlantirish, sotsial omillarning ta'sirini baholash metodikalarini takomillashtirish, subyektlar (shaxs, jamiyat va davlat) ning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish, ijtimoiy xavfsizlikning axborot ta'minotini rivojlantirish, tahdidlarni bartaraf qilishda inson kapitalini rivojlantirishni texnologik qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari birlamchi ahamiyat kasb etadi.

12. Sotsial omillarning ijobiy ta'sirini oshirishda ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini keng joriy qilish, ijtimoiy institutlarni, jumladan mahalla va oila institutini takomillashtirish, bandlik, ta'lim, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimiga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy risk va tahdidlarni samarali boshqarish mumkin.

**РАЗОВЫЙ УЧЁНЫЙ СОВЕТ В СОСТАВЕ УЧЁНОГО СОВЕТА  
№ PhD.30.11.2021. Ss/I.89.02, ПРИСУЖДАЮЩЕМ УЧЁНЫЕ СТЕПЕНИ  
ПРИ ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА И  
ПРОГНОЗИРОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ТУРАЕВ ОДИЛЖОН БЕКТЕМИР УГЛИ**

**СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОЦИАЛЬНУЮ  
БЕЗОПАСНОСТЬ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВА**

**22.00.02 – Социальная структура, социальные институты и образ жизни**

**23.00.05 – Проблемы системного анализа и прогнозирования  
национальной безопасности (социологические науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации, подготовленной на соискание учёной степени доктора социологических  
наук (DSc).**

**ТАШКЕНТ– 2025**

**Тема диссертации на соискание ученой степени доктора социологических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.4. DSc /S47**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Учёного совета и на информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

**Научный консультант:** **Матибаев Таспулат Болтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Абдураманов Хамид Худайбергенович**  
доктор экономических наук, профессор  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, профессор  
**Абдурахмонова Манзура Манофовна**  
доктор социологических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Республиканский центр изучения общественного мнения «Ижтимоий фикр»**

Защита диссертации состоится на заседании Разового совета по присуждению ученых степеней при Ученом совете PhD.30.11.2021.Ss/I.89.02, действующем при Высшей школе стратегического анализа и прогнозирования Республики Узбекистан, в \_\_\_\_\_ 2025 года в 15:00 (адрес: 100000, город Ташкент, Юнусабадский район, улица Шарафобод, дом 20. Тел.: (+998)71-252-91-36).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Высшей школы стратегического анализа и прогнозирования Республики Узбекистан (адрес: 100000, город Ташкент, Юнусабадский район, улица Шарафобод, дом 20. Тел.: (+998)71-252-91-36).

Автореферат диссертации распространён «\_\_» июня 2025 года.

(Протокол № \_\_\_\_ от «\_\_» июня 2025 года.)

**А.А. Зокидов**  
Председатель разового Учёного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

**Ш.А. Мукимов**  
Учёный секретарь разового Учёного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по экономическим наукам, PhD

**Ш.М. Содикова**  
Председатель Научного семинара при разовом Учёном совете по присуждению учёных степеней, доктор социологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В настоящее время, когда в мире усиливаются трансформационные процессы, перед мировым сообществом стоит актуальная задача своевременного выявления различных факторов, угрожающих социальной безопасности, и устранения их негативного воздействия. В связи с этим ведущие международные организации, научно-исследовательские институты и аналитические центры («мозговые центры») осуществляют постоянный мониторинг состояния социальной безопасности в различных странах и факторов, влияющих на неё. На основе их исследований формируются индексы безопасности в социальной сфере и рейтинги государств. Эти показатели, в свою очередь, напрямую влияют на международный имидж стран и становятся одним из ключевых критериев при развитии политических, торгово-экономических, технологических и культурно-гуманитарных связей.

Вместе с тем механизмы оценки социальных факторов, влияющих на социальную безопасность, постоянно совершенствуются, и активно ведутся научные исследования по применению новых и современных научно-технологических методов. В частности, Институт исследований в области социального развития ООН, Организация экономического сотрудничества и развития (ОЭСР), а также Европейский центр социальной благополучной политики и исследований предлагают инновационные решения по мониторингу состояния социальной безопасности. Это, в свою очередь, способствует упрощению процесса оценки социальных факторов, влияющих на социальную безопасность, расширению охвата оценки, а также повышает возможности по разработке достоверных прогнозов.

В таких условиях, когда Узбекистан находится в процессе трансформации в социальное государство, возникает объективная необходимость в постоянном мониторинге и оценке состояния социальной безопасности, что, в свою очередь, обуславливает потребность в совершенствовании государственной социальной политики. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Независимо от национальности, языка и религии, каждая личность, живущая в нашей стране, должна жить свободно, мирно и благополучно, быть довольной своей жизнью сегодня – это наша главная цель. В этом направлении перед нами стоят огромные задачи. Развитие нашей страны и благосостояние народа, в первую очередь, тесно связаны с результативностью проводимых нами реформ в социальной сфере<sup>31</sup>». В связи с этим существует объективная необходимость совершенствования механизма оценки социальных факторов, влияющих на социальную безопасность, и приведения его в соответствие с современными требованиями.

Благодаря качественной оценке состояния социальной безопасности появляется возможность выявить не только существующие угрозы и возможности в обществе, но и определить эффективность государственной социальной политики. На основе результатов оценки разрабатываются соответствующие

---

<sup>31</sup>Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. 28 декабря 2018 года. // «Народное слово», 29 декабря 2018 года.

нормативно-правовые акты и государственные программы по развитию проблемных сфер, а также осуществляется мониторинг их исполнения.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации приоритетных задач, предусмотренных в нормативно-правовых актах, касающихся данной темы, в том числе: Конституционный закон Республики Узбекистан от 1 мая 2023 года № ЗРУ-837 «О Конституции Республики Узбекистан», Закон Республики Узбекистан от 16 марта 2020 года № ЗРУ-611 «О переписи населения», Закон от 15 октября 2020 года № ЗРУ-641 «О правах лиц с инвалидностью», Закон от 20 октября 2020 года № ЗРУ-642 «О занятости населения», Закон от 25 сентября 2014 года «О социальном партнёрстве», Закон от 26 декабря 2016 года «О социальных услугах для пожилых людей, лиц с инвалидностью и других социально уязвимых категорий населения», Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»», Указ от 21 февраля 2024 года № УП-37 «О государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в Год поддержки молодёжи и бизнеса», Указ от 30 января 2025 года № УП-16 «О государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в Год охраны окружающей среды и «зелёной экономики», Указ от 1 июня 2023 года № УП-82 «О комплексе мер по оказанию качественных социальных услуг и помощи населению, а также налаживанию системы их эффективного контроля», Указ от 25 июля 2022 года № УП-175 «Об утверждении стратегии социальной защиты населения Республики Узбекистан», Указ от 23 сентября 2024 года № УП-143 «О выведении на новый этап мер по сокращению бедности и повышению благосостояния населения», Постановление Президента от 23 сентября 2024 года № ПП-330 «О первоочередных мерах по реализации программы «От бедности к благополучию»».

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации**<sup>32</sup>. Научные исследования, направленные на обеспечение социальной безопасности государства и устранение социальных рисков в этом контексте, активно проводятся ведущими высшими учебными заведениями и научными центрами мира, в том числе Международной организацией труда при ООН (UN International Labour Organization, UNILO), Программой развития ООН (UN Development Programme, UNDP), Европейской экономической комиссией ООН (United Nations Economic Commission for Europe, UN ECE), Фондом народонаселения ООН (United Nations Population Fund, UNFPA), Группой Всемирного банка (The World Bank Group),

---

<sup>32</sup><https://www.ilo.org/global/lang-en/index.htm>, <https://www.undp.org>, <https://unece.org>, <https://www.unfpa.org>, <https://www.worldbank.org>, <https://www.who.int>, <https://www.oecd.org>, <https://www.iprcc.org>, <https://www.povertyactionlab.org>, <https://www.eapn.eu>, <https://ophi.org.uk>, <https://www.povertycenter.columbia.edu>, <https://www.parisschoolofeconomics.eu/en>, <https://www.cer.uz>, <https://imrs.uz>, <https://strategy.uz>, <https://cedr.uz>. Дата обращения: 08.09.2024 г.

Всемирной организацией здравоохранения (World Health Organization), Организацией экономического сотрудничества и развития (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD), Международным центром по сокращению бедности в Китае (International Poverty Reduction Center in China, IPRCC), Лабораторией по борьбе с бедностью имени Абдула Латифа Джамии (Abdul Latif Jameel Poverty Action Lab, J-PAL). Также значительный вклад в исследования в данной области вносят Европейская сеть по борьбе с бедностью (European Anti Poverty Network, EAPN), Инициатива по изучению бедности и человеческого развития Оксфордского университета (Oxford Poverty and Human Development Initiative (OPHI) at the University of Oxford), Центр по вопросам бедности и социальной политики при Колумбийском университете (Center on Poverty and Social Policy at Columbia University), Парижская школа экономики (Paris School of Economics, PSE). В Узбекистане исследования по данной тематике осуществляются Центром экономических исследований и реформ при Администрации Президента Республики Узбекистан, Институтом макроэкономики и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан, Институтом исследований бедности и рынка труда при Министерстве по сокращению бедности и занятости, Центром «Стратегия развития», Научно-исследовательским центром по научным основам и проблемам развития экономики Узбекистана, а также Высшей школой стратегического анализа и прогнозирования Республики Узбекистан.

